



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
musiqqa fani o'qutuvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 7-sinflar uchun
IV chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan musiqa fanidan IV chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
IV chorak				
1.	Zamonaviy o‘zbek musiqa madaniyati haqida	1		
2.	Atoqli o‘zbek san’atkorlari va musiqiy jamoalari	1		
3.	Nazorat ishi – 5. (Ijodiy va yozma ishi)	1		
4.	Teatr san’ati va konsert ijrochilik faoliyati (<i>Ijodiy va yozma ishi</i>)	1		
5.	Televideniya va kino musiqasi haqida	1		
6.	Televideniya va kino musiqasi haqida	1		
7.	Nazorat ishi – 6. Amaliy: Ijodiy va yozma ishi	1		
8.	O‘zbek musiqa san’atining jahon sahnasiga chiqishi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Zamonaviy o'zbek musiqa madaniyati haqida

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish.

Tarbiyaviy: milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirish.

Rivojlantiruvchi: o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatish

Vazifalar:- Musiqa madaniyati o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirish;

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

bilimini mustaqil ravishda oshirib borish; o'zining qiziqishlariga ko'ra qobiliyatlarini namoyon qila olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o'sish sur'atlarini bilish, Shashmaqom tarkibidagi maqomlar sonini bilish.

Uslub: "Aql charhi" o'yini, "Topqirlik" mashqlari, hikoya, suhbat, savol-javob, "Klaster",

Shakl: Suhbat-munozara, guruhlarda va jamoada ishlash.

Vosita: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar, notalar yoki audio yozuvlari, fortepiano cholg'u asbobi, rag'batlantiruvchi kartochkalar.

Usul: Tayyor yozma materiallar.

Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.

Kutiladigan natijalar: mavzuni berilgan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish. O'quvchilar faolligini oshirish. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish o'yg'otish. Dars jarayonida ko'proq o'quvchini baholashga erishish. Savol-javoblarga qatnashib, mustaqil fikrlashga o'rgatish. O'quvchi musiqa haqida bilimlar egallaydi, yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi, nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi va baholay oladi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Hozirgi davr o‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va rango-rang, ayni paytda, yangi zamon an‘analarini o‘zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda, eng avvalo, xalq musiqasi, an‘naviy mumtoz musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotlari hamda ommabop estrada qo‘shiqchiligi jabhalari namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalqining ma‘naviy go‘zalligi asrlar qa‘ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o‘zining ajoyib va betakror badiiy ifodasini topgan. Binobarin, milliy musiqa ko‘p asrlar davomida shakllangan ajdodlarimiz boy ma‘naviyatining sadolardagi jonli ifodasi bo‘lib, bugungi kunda yangi, buyuk davlat bunyodkori bo‘lmish xalqimizning ruh quvvati va jon ozig‘i bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu boisdan ham Respublikamizda milliy musiqa qadriyatlarimizni qayta tiklash va rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab ko‘rik-tanlov hamda festivallarning o‘tkazilishi an‘anaga aylanib bormoqda. Xususan, bu o‘rinda “Alla”, baxshi-shoir va maqom ijrochilarining ko‘rik-tanlovlari muntazam o‘tkazilib kelinayotganligini aytish mumkin.

Ayni chog‘da, G‘anijon Toshmatov, Muhammadjon Mirzayev, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, G‘ulomjon Hojiqulov, Salohiddin To‘xtasinov, Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov singari yetuk san‘atkorlar ijodida bastakorlik an‘analari yangi bosqichga yuksaldi. Shuningdek, kompozitorlik sohasida Ikrom Akbarov, Mirsodiq Tojiyev, Mustafo Bafojev, Mirxalil Mahmudov, Farhod Alimov, Bahrullo Lutfullayev, Habibulla Rahimov, Rustam Abdullayev va Nadim Norxo‘jayevlar barakali ijod qilib, talaygina musiqa asarlarini tinglovchilarga taqdim etdilar.

IV. O‘tilgan mavzuni takrorlash mustahkamlash:

“Aql charhi” o‘yini, “Topqirlik” mashqlari yordamida takrorlanib, mustahkamlanadi.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, qo‘shiqni yod olish.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Atoqli o‘zbek san’atkorlari va musiqiy jamoalari

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish.

Tarbiyaviy: milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o‘stirish.

Rivojlantiruvchi: o‘zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o‘rgatish

Vazifalar:- Musiqa madaniyati o‘quv fani bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirish;

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a‘zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to‘g‘ri qabul qilish, turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildirish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish. Internet-saytlardan musiqaga oid ma’lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila bilish.

Uslub: “*Aql charhi*” o‘yini, “*Topqirlik*” mashqlari, hikoya, suhbat, savol-javob, “Klaster”,

Shakl: Suhbat-munozara, guruhlarda va jamoada ishlash.

Vosita: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar, notalar yoki audio yozuvlari, fortepiano cholg‘u asbobi, rag‘batlantiruvchi kartochkalar.

Usul: Tayyor yozma materiallar.

Nazorat: Og‘zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish.

Kutiladigan natijalar: mavzuni berilgan vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishish. O‘quvchilar faolligini oshirish. O‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish o‘yg‘otish. Dars jarayonida ko‘proq o‘quvchini baholashga erishish. Savol-javoblarga qatnashib, mustaqil fikrlashga o‘rgatish. O‘quvchi musiqa haqida bilimlar egallaydi, yakka holda va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi, nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi. Qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘ladi va baholay oladi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘zbekiston o‘z davlat Mustaqilligiga erishgan kundan boshlab uning musiqa san’ati rivojida katta o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Bunda, eng avvalo, buyuk ajdodlarimizdan bebaho ma’naviy meros qolgan mumtoz musiqa (maqom, ashula, katta ashula, suvora va b.) asarlarini xalqimiz orasida keng targ‘ib qilish ishlari juda muhim o‘rin tutmoqda. Albatta, bu kabi ijodiy ishlarni amalga oshirishda atoqli san’atkor-ijrochilarning xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, otaxon san’atkorlardan — O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Alimatov maqomlarda mujassam ma’naviy go‘zalliklarni tanbur-u satoda, g‘ijjag-u dutorda badiiy “jonlantirib”, xalqimiz olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston xalq artistlari G‘anijon Toshmatov, G‘ulomjon Hojiqulov, Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov kabi mahoratli sozandalar ham o‘zlarining betakror g‘ijjak nolalari, o‘ziga xos ijro sayqallari bilan mumtoz musiqa hamda zamondosh bastakorlarning asarlarini “bezak”lashga musharraf bo‘ldilar.

Shuningdek, O‘zbekiston xalq hofizlari Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonov, Muhammadjon Karimov, Quvondiq Iskandarov, Hasan Rajabiy, Mahmud Tojiboyev, O‘zbekiston xalq artistlari Otajon Xudoyshukurov, Munojot Yo‘lchiyeva va Maryam Sattorovalar maqom ashula yo‘llari, Yevropa hamda bastakorlar asarlarini go‘zal tarzda ijro etishga erishdilar.

Ayni paytda, mumtoz maqom va xalq musiqa ijodiyoti namunalarini tinglovchiga bekam-u ko‘st taqdim etishda O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi huzuridagi Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli, O‘lmas Saidjonov rahbarligidagi an‘anaviy ansambl, Xorazm viloyat televideniyesi huzuridagi Hojixon Boltayev nomidagi “Maqom” ansambli, O‘zteleradiokompaniyasi huzuridagi “Dutorchilar” ansambli singari ijodiy jamoalarning ham alohida o‘rni bor.

IV. O‘tilgan mavzuni takrorlash mustahkamlash:

“Aql charhi” o‘yini, “Topqirlik” mashqlari yordamida takrorlanib, mustahkamlanadi.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, qo‘shiqni yod olish.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

**18 listdan iborat musiqa fanidan
7-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar